

KOMIL SINDAROVNING “TEMURIYLAR KUTUBXONASINING SIRI” ASARINING ZAMON BILAN HAMNAFAS BO‘LISHI.

*Noroboboyev Diyorbek Baymat o‘g‘li Samarqand
davlat universiteti Urgut filiali Pedagogika va
tillarni o‘qitish fakulteti Boshlang‘ich ta‘lim
yo‘nalishi 2-bosqich talabasi.*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Komil Sindarov serqirra ijodkor, zamonaviy o‘zbek adabiyoti va huquqshunoslik sohasi vakili, yuridik fanlar doktori, dotsent va taniqli yozuvchi. U detektiv janrdagi asarlari bilan kitobxonlar orasida mashhurdir. O‘zbek adabiyotida detektiv janri biroz oqsab turgan bir paytda, Komil Sindarovning o‘zining real hayotiy voqealarga asoslangan asarlari mantiqiy izchilligi va kutilmagan yechimlar bilan ajralib turadi. Bu asarda bizga tergovchi faqat adolat bilan hukm chiqarishni, insoniylik fazilatlarini o‘zida mujassam etishni o‘rgatadi.

Kalit so‘zlar: Faxriddin Karimovich, Norbo‘ta cho‘pon, Sanjar Rahmonov, Sadoqat, Mastura, Hikmat, Nosir.

Annotation: This article discusses Komil Sindarov, a versatile creator, a representative of modern Uzbek literature and the field of law, Doctor of Juridical Sciences, associate professor, and a well-known writer. He is popular among readers for his detective works. At a time when the detective genre in Uzbek literature was somewhat declining, Komil Sindarov’s works, based on real-life events, stand out with their logical consistency and unexpected solutions. In this work, we learn that an investigator should deliver judgments based only on justice and embody human virtues.

Keywords: Fakhriddin Karimovich, Norbo‘ta the Shepherd, Sanjar Rahmonov, Sadoqat, Mastura, Hikmat, Nosir.

Аннотация: В данной статье рассматривается Комил Синдаров — многогранный творческий деятель, представитель современной узбекской литературы и юридической науки, доктор юридических наук, доцент и известный писатель. Он известен среди читателей своими произведениями в детективном жанре. В то время, когда детективный жанр в узбекской литературе несколько ослабевал, произведения Комила Синдарова, основанные на реальных жизненных событиях, выделяются логической последовательностью и неожиданными развязками. В этом произведении автор показывает, что следователь должен выносить решения только на основе справедливости и воплощать в себе человеческие качества.

Ключевые слова: Фахриддин Каримович, Норбўта чўпон, Санжар Рахмонов, Садокат, Мастура, Хикмат, Носир.

Bu asar 2024-yil Komil Sindarov tomonidan yozilgan. Bir o'qishda voqealar rivoji kitobxon xayolida gavdalanmasada, ammo buning tag mohiyatida juda kata ma'no yashiringan. Asarda oddiy bir cho'ponning o'limi qanchadan-qancha voqealar rivojiga, necha yildan buyon olimlar tomonidan qidirilayotgan ammo topilmay kelayotgan temuriylar kutubxonasi, ya'ni oddiy cho'ponning qotilini izlash jarayonida temuriylar kutubxonasining ham topilishi tahsinga sazovordir.

Asar haqida ma'lumot beradigan bo'lsak, bugungi kunda tarixiy-badiiy asarlar nafaqat o'tmishni yoritish, balki zamonaviy jamiyatning ma'naviy va ma'rifiy ehtiyojlarini qondirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, milliy tariximiz, buyuk ajdodlarimiz va ularning ilm-fan taraqqiyotiga qo'shgan hissasi haqida hikoya qiluvchi asarlar yosh avlodni tarbiyalashda katta o'rin tutadi. Shu jihatdan Komil Sindarovning „Temuriylar kutubxonasining siri“ asari ham tarixiy haqiqat, ilm-marifat va badiiy tasvir uyg'unligi bilan alohida e'tiborga loyiqdir. Yana asar haqida ma'lumot beradigan bo'lsak, bugungi kunda tarixiy-badiiy asarlar nafaqat o'tmishni yoritish, balki zamonaviy jamiyatning ma'naviy va ma'rifiy ehtiyojlarini qondirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, milliy tariximiz, buyuk ajdodlarimiz va ularning ilm-fan taraqqiyotiga qo'shgan hissasi haqida hikoya qiluvchi asarlar yosh avlodni tarbiyalashda kata o'rin tutadi. Shu jihatdan Komil Sindarovning „Temuriylar kutubxonasining siri“ asari ham tarixiy haqiqat, ilm-marifat va badiiy tasvir uyg'unligi bilan alohida e'tiborga loyiqdir.

Mazkur asarda Temuriylar davridagi ilm-fan, kutubxonalar va ma'rifat markazlari haqida hikoya qilinib, o'sha davrning boy ilmiy merosi badiiy tarzda yoritiladi. Asar nafaqat tarixiy voqealarni tasvirlaydi, balki bugungi kun bilan ham ma'naviy jihatdan hamohang bo'lib, ilmga intilish, kitobga hurmat va ma'rifatga muhabbat kabi g'oyalarni targ'ib etadi.

Asarni boshida o'qib borishda inson ham shu asar ichiga kirib borayotgandek bo'ladi go'yo. Asarda ko'rishimiz mumkinki tergovchi cho'ponning o'limini topishda aybni asar qahramonlaridan biri Hikmatning bo'yniga qo'yib yuborsa ham bo'lar edi, chunki hamma dalillar Hikmatga qarshi ishlayotgan edi. Lekin Faxriddin bunday qilmadi vaziyatni chuqurroq o'rganishga kirishdi.

Asarning so'ngida esa haqiqiy aybdorni topdi va shu bilan birga bizning eng kata boyliklarimizdan biri bo'lgan temuriylar kutubxonasini ham topdi. Bu asarning boshida cho'ponning o'ldirilib ketishi bilan boshlanadigan bo'lsa, qotil uning qo'liga temuriylar kutubxonasiga tegishli kitobni va cho'ntagiga bir dona oltin tangani solib ketishi ham bejiz emas. Qotil ham aybni boshqa bir shaxsga to'nkamoqchi desak mubolag'a bo'lmaydi. Negaki tergovchi oddiy shu dalilni deb qanchadan-qancha insonlardan gumon qiladi, ammo asar so'ngida haqiqiy jinoyatchini topishadi.

Asarga qaytadigan bo'lsak, asarning nomi „Temuriylar kutubxonasining siri“ va bu asarning asl nomi bizning buyuk bobomiz Amir Temurga borib taqaladi. Amir

Temur Qashqadaryoning Kesh shahrida tug'ilganligi uchun voqealar rivojini ham Qashqadaryodan boshlanganligini anglab olishimiz mumkin. Amir Temur bobomiz sarkarda bo'lsa ham, kitobga mehri juda kuchli bo'lgan. Asarni o'qish jarayonida ham bilib olishimiz mumkinki Amir Temur Arabistonni bosib olgach odamlardan jon solig'i uchun o'zining vazniga teng kitoblar olib kelishini buyuradi yo'qsa ularni o'ldirishini aytadi. Odamlar esa kitoblarimizni bergandan ko'ra o'lganimiz yaxshi deya olib borishmaydi. Amir Temur esa ularni o'z qadriyatlariga, kitoblariga bo'lgan hurmatini ko'rib ularni ozod qiladi.

Amir Temur o'limiga qadar o'z kitoblarini va kutubxonasini asraydi. O'limi oldi esa Mirzo Ulug'bekka kutubxonani asrashni vasiyat qilib qoldiradi. Mirzo Ulug'bek bobosining kutubxonasini Amir Temur tug'ilgan joy Qashqadaryoga olib kelmoqchi bo'ladi. Keyinchalik uning maqsadini uning shogirdi Ali Qushchi amalga oshiradi. Bobo kalonlarimiz tarixiy kitoblarni asrab qolishlari uchun jon jahdlari bilan harakat qilishganlar, kurashganlar.

Asarni o'qib borar ekanmiz Qashqadaryolik tergovchi Mahkam tergovchi Faxriddinga sizdan boshqa tergovchi bo'lganida aybni shartta boshqasiga ilib unvonni olib mazza qilib yurardi. Qo'lingizda yetarlicha dalil bo'lsa, bo'yniga iling ishdan qutiling tamom deb maslahat beradi. Faxriddin esa unga javoban bu dalillar yetarli emas, aybsiz odamni ayblamayman men adolatni qaror toptiraman deydi. Bu asarda Faxriddin va uning shogirdi Sanjarbek juda aqlli zukko tergovchi bo'lishadi. Ular faqat qonun tarafda, adolat qaror topishini istashadi. Hattoki Sanjarbekning yaqin advokat kursdoshi unga pora taklif qiladi. Ishni yopishni aytadi. Lekin Sanjarbek yaqin do'stligiga ham qaramasdan pora berayotgan jarayonda qamoqqa oladi. Adolat yo'lida do'stini ham ayamaydi.

Asarda tasvirlangan Norbo'ta cho'pon oddiy, sodda, va mehnatkash inson sifatida ko'rsatilgan. U tasodifan Temuriylar davriga oid sirli voqealar va yashirin ma'lumotlar bilan bog'liq holatning guvohiga aylanadi. Aynan shu sababli u xavfli vaziyatga tushib qoladi. Asarda tasvirlanishicha, Norbo'ta cho'pon sirli kuchlar yoki bu sirning ochilib ketishini istamagan shaxslar sabab halok bo'lgan. Uning o'limi voqealar rivojini yanada jiddiyroq yondashishga majbur qiladi.

Norbo'ta cho'ponning o'limi orqali muallif bir nechta g'oyani ko'rsatadi:

- Tarixiy sirlar va boyliklar ortida ba'zan xavf va kurashlar bo'lishi mumkinligi;
- Oddiy inson ham katta voqealar girdobiga tushib qolishi mumkinligi;
- Haqiqatni izlash yo'lida qurbon bo'lish mumkinligi.

Shu jihatdan Norbo'ta cho'ponning fojeali o'limi asarning dramatik ruhini kuchaytiradi va o'quvchini voqealar davomiga yanada qiziqtiradi.

Muhokama qismi:

Har bir xalq va millat o'zining yashash sharoiti, ijtimoiy holati, tarixi va bugungi erishgan yutuqlarini ma'lum bir qolipga solib, ulardan tajriba o'rgangan holda xalqqa

tegishli bo'lgan hikmatli so'zlar ishlatadi. Komil Sindarov ham „Temuriylar kutubxonasining siri“ asarida „Oltin ko'rinsa, farishta yo'ldan ozur“ degan maqolni ilgari suradi. Komil Sindarov bu kitobni juda ta'sirli va insonning ongiga kirib boradigan tarzda yozgan.

Bu asarni hozirgi zamon bilan hamnafas qilib oladigan bo'lsak, undagi har bir tergovchi va boshqa qahramonlar faqat qonun doirasida va insoniylik burchlari ham birinchi navbatda turgan. Komil Sindarovning o'zi ham huquqshunos bo'lganligi uchun bu kitobni juda aniq yoritib bergan.

Asarning asosiy g'oyalari:

1. Adolat va gumanizm: Qissada muallif insoniylik, mehr-oqibatni, adolatni ifodalaydi.

2. Cho'ponning o'lishi. Cho'ponning o'lishi oddiygina hol emas, balki uni qadimiy qo'lyozmalar va oltin talashish yuzasidan o'ldirilganini ko'rishimiz mumkin.

3. Poraxo'rlikka qarshi kurashish. Asarda ko'rishimiz mumkinki ko'plab ishlarni poraxo'rlik bilan bosdi-bosdi qilishmoqchi bo'lishadi. Asarda hamma ayblar, dalillar ham Hikmatga qarshi ishlatilayotgan bir vaqtda, Rossiyadagi o'rtog'iga pul yuborishini so'raydi. Pul yetib kelgach Hikmatning advokati Faxriddinning shogirdi Sanjarbekka Hikmatdan ayblovlarni olishini so'raydi. Faxriddin va Sanjarbek uni pora ustida qo'lga olmoqchi bo'lishadi va shartiga rozi bo'ladi. Advokat porani berayotgan vaqtda jinoyat ustida ushlaydi. Bundan ko'rishimiz mumkinki, ikki tergovchi qonun oldida hamma barobar ekanligini yana bir bor isbotlab qo'ydi. Asarda ikki tergovchi vatanga hiyonat qilmagan yetuk shaxs bo'lib gavdalanganligini ko'rishimiz mumkin.

4. Asarning eng asosiy g'oyalaridan biri, ilm-fan va ma'rifatning yuksak qadridir. Asarda Temuriylar davrida ilmga, kitobga va kutubxonalarga berilgan e'tibor badiiy voqealar orqali yoritilib, kitob insoniyat taraqqiyotining eng muhim manbalaridan biri ekani ta'kidlangan. Shuningdek, asarda tarixiy merosni asrash va qadrlash g'oyasi ham muhim o'rin tutadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak Komil Sindarovning „Temuriylar kutubxonasining siri“ asari tarixiy-badiiy yo'nalishda yozilgan bo'lib, unda Temuriylar davrining ilm-ma'rifatga boy muhitni, kutubxonalar va kitoblarning jamiyat hayotidagi ahamiyatini badiiy voqealar orqali ochib berish maqsadi ko'zlangan. Muallif ushbu asar orqali o'quvchini nafaqat qiziqarli voqealar bilan tanishtiradi, balki uni o'tmishdagi boy ilmiy meros haqida chuqurroq o'ylashga undaydi. Asarda Temuriylar davridagi ilm-fan taraqqiyoti, kutubxonalarning ahamiyati hamda ajdodlarimizning bilimga bo'lgan yuksak e'tiborini yorqin tasvirlangan. Asarni yozishdan asosiy maqsad, yosh avlod qalbida ilmga muhabbat uyg'otish, tarixiy merosni qadrlash tuyg'usini shakllantirish, insoniylik, to'g'ri so'zlikka chorlaydi. Bu asar bugungi avlod uchun ham katta tarbiyaviy va ma'rifiy ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

- 1.Komil Sindarov. Toshkent:Yangi asr avlodi,2024-yil.
- 2.Komil Sindarov, „Temuriylar kutubxonasining siri“.2022-yil.
- 3.Kamoliddinova M.B, Qosimova F.X. „Temuriylar kutubxonasining siri“.Ustozlar uchun ilmiy maqolalar to‘plami.2023-yil.
- 4.Bo‘riboy Ahmedov.Amir Temur.Toshkent:O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi nashriyoti.1996-yil.
- 5.B.A.Ahmedov.Temuriylar davrida Movrounnahr.Toshkent:Fan nashriyoti.1999-yil.